D.N. MAMEDOVA

« ISSIQLIK YURITKICHLAR VA BOSIM BILAN HAYDASH MASHINALARI »

fanidan tajriba mashg'ulotlarni o'tish uchun

O'QUV QO'LLANMA

(o'zbek va rus tillarda)



Toshkent – 2020 yil

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

«ISSIQLIK ENERGETIKASI» KAFEDRASI

« ISSIQLIK YURITKICHLAR VA BOSIM BILAN HAYDASH MASHINALARI »

fanidan tajriba mashg’ulotlarni o’tish uchun

O’QUV QO’LLANMA

(o’zbek va rus tillarda)

Toshkent – 2020 yil

Tuzuvchi:

QMII“Issiqlik energetikasi” kafedrasi
k. o’qit. D.N.Mamedova.

Taqrizchi: QDU professori
f-m,f.d **A.Q.Tashatov**.,
«Issiqlik energetikasi» kaf.
dots. **I.N. Qodirov**

O’quv qo’llanma 5310100 Issiqlik Energetikasi bakalavr yo’nalishida ta‘lim olayotgan talabalar uchun mo’ljallangan bo’lib, unda «Issiqlik yuritkichlar va bosim bilan haydash mashinalari» fanidan tajriba mashg’ulotlarini bajarish tarkibi keltirilgan.

Ushbu o’quv qo’llanma «Issiqlik energetikasi» kafedrasi majlisida ko’rib chiqilgan (bayon №10, 07.01.2020y). EF uslubiy komissiyaning (bayon №6, 28.01.2020y) institut uslubiy kengashi (bayon №7, 25.02.2020y) qarorida ma‘qullangan va o’quv jarayonida ishlatishga tavsiya etilgan.

.

Annotatsiya:

Ushbu o’quv qo’llanma “Issiqlik yuritkichlar va bosim bilan haydash mashinalari” fanidan tajriba mashg’ulotlarni o’tish uchun yozilgan bo'lib, shu fanning o’quv dasturiga mos keladi. Tajriba mashg’ulotlarni 5310100 – “Energetika (Issiqlik energetikasi)” yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga “Issiqlik yuritkichlar va bosim bilan haydash mashinalari” mutaxassislik fanidan tajriba mashg’ulotlarini to'liq o'zlashtirishlari uchun mo'ljallangan.

Аннотация:

Данное учебное пособие предназначено для выполнения лабораторных занятий по дисциплине «Тепловые двигатели и нагнетательные машины» и соответствует типовой программе данной дисциплины. Пособие предназначено для обучения бакалавров направления 5310100 – «Энергетика (Теплоэнергетика)» по дисциплине «Тепловые двигатели и нагнетательные машины».

Annotation:

This training manual is intended for performing laboratory work on the discipline "Thermal engines and blowing machines" and corresponds to the standard program of this discipline. The manual is intended for training bachelors of direction 5310100 - "Energy (Heat Power Engineering)" in the discipline "Thermal engines and blowing machines". The manual considers the operation of the heat supply system and the equipment of heat networks, calculation of heat losses of the heating network.

KIRISH

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlashda, oliy ta'lim muassasalarini ilg'or jahon tajribalari asosida yaratiladigan yangi avlod darslik, o'quv qo'llanmalari hamda davriy nashrlar bilan tizimli ta'minlash bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu maqsadda yozilgan mazkur o'quv qo'llanma "Issiqlik yuritkichlar va bosim bilan haydash mashinalari" fanini o'zlashtirishga doir bo'lib, talabalarni fan yuzasidan olgan nazariy bilimlarini tajriba ishlarini bajarish orqali yanada mustahkamlashga, nazariya va amaliyot tushunchalarini yanada chuqurroq anglashlariga yordamlashadi.

O'quv qo'llanmada fanning eng muhim mavzulariga oid tajriba ishlarini bajarishga doir ma'lumotlar keltirilgan. Talabalar bu tajriba ishlarini o'rganib, bajarib, ta'lim yo'nalishiga mos bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladilar.

TALABALARNING TAJRIBA ISHLARIDA RIOYA QILISHLARI LOZIM BO'LGAN XAVFSIZLIҚ TEXNIKASI QOIDALARI

Talabalar tajriba ishlarini bajarishda bir qancha muhim bo'lgan qoidalarga amal qilishlari lozimdir. Tajriba ishlarini bajarish elektr uskunalari yordamida olib borilgani uchun ularni tok bilan jaroxatlanish xavfi bo'ladi. Ma'lumki 40-42 V kuchlanish xavfsiz bo'lib, bu paytda odamdan 0,1-0,3 A gacha tok o'tadi. Shuningdek, 50 mA tok odamni jaroxatlantirishga, 100 mA tok esa o'limga olib keladi.

Umumiy holda talabalar tajriba ishlarini bajarishlari mobaynida lozim bo'lgan tartib qoidalarni keltirib o'tamiz:

1) Tajriba ishini bajarishdan oldin ish bilan chuqur tanishish kerak.

2) Berilgan sxemani va zanjirni yig'ishdan oldin uzib ulagich uzilgan holdaligini tekshirish kerak.

3) Sxemani yig'ishda har xil uziq yuliq simlardan, nosoz asboblardan foydalanmaslik kerak.

4) Sxemani diqqat bilan yig'gandan so'ng, sxemada qatnashayotgan asboblarda tok bo'lmasligini, yerga ulanganlik darajasi yaxshiligini yana bir bor ko'zdan kechirish kerak.

5) Sxemani manbaga ulashdan oldin undagi ochiq qismlari to'la himoyalanishga erishish.

6) Tajriba ishlari suv bilan ta'minlanish kerak bo'lganda suvni erkin oqish yo'llarini tekshirib ko'rish, shlanglarni butunligiga ishonch hosil qilish kerak.

7) Elektr dvigatellari bilan ishlashda soch va kiyimlarni aylanuvchi valdan ehtiyot qilish lozim.

8) Mustaqil tarzda hech qanday sxemaga tegmaslik, hamda uzib ulashni bajarmaslik kerak.

9) Tajriba ishini boshlashdan oldin rahbarga bajarish tartibini aytib berish va ruxsat olish shart.

10) Agar ish bajarish davrida simlarni uzilishi, asbobni to’g’ri ishlamayotganini, hamda noxush hidlar paydo bo’lsa, birinchi navbatda sxemani uzish va tezda rahbarga xabar berish kerak.

Talabalar yuqoridagi qoidalarga rioya etishlari va rahbarning texnika xavfsizligi bo’yicha to’lik tushuntirishlarini diqqat bilan tinglab, unga amal qilishlari lozim, bu esa tajriba ishini samarali va sifatli bajarilishiga zamin yaratadi.

Ta‘kidlab o’tilgan va rahbar tushuntirgan qoidalarni bilib olgandan so’ng talabalar «Xavfsizlik texnikasi» maxsus jurnaliga o’z imzolarini qayd etishlari talab etiladi.

1 – TAJRIBA ISHI

«Bug’ turbinasining ishlash prinsipi bilan tanishish»

Ishdan maqsad: Tajriba ishidan maqsad bug’ turbinali qurilmaning konstruktiv tuzilishini chuqur o’rganib chiqishlari va bug’ turbina qurilmasining ishlash prinsipini, hamda eskizini chizishni o’rganish.

Tayanch iboralar: issiqlik, issiqlik mashinasi, turbina, bug’ turbina, aktiv turbina, reaktiv turbina, ishchi va yetaklovchi kuraklar.

Kerakli jihozlar: Bug’ turbinasini konstruktiv tuzilishini o’rganish uchun qurilma chizmasi, ishlash prinsipini o’rganish uchun taqdimot shaklida videoroliklar.

Taqdimotning bir necha slaydlari ilovada keltirilgan.

Tajriba ishini bajarish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish kerak:

1. Мухиддинов Д.Н., Матжанов Э.К. Иссиқлик электр станцияларнинг турбинали қурилмалари. Ўқув қўлланма – Тошкент, Шарқ нашриёти, 2007.
2. Тошбоев Н.Т. «Иссиқлик юритгичлари» фанидан маърузалар тўплами. 2000.

Ishning davomiyligi – 2 soat.

I.Umumiy ma‘lumotlar

Bug’ning issiqlik energiyasini bosqichma-bosqich mexanik energiyaga aylantirib beruvchi issiqlik mashinasi bug’ turbinasi deyiladi. Hosil qilingan energiya boshqa turdagi energiyaga yoki mexanik energiyaga aylantiriladi. Italiyalik olim D. Brank bug’ turbinasi modeliga xos bo’lgan bug’ g’ildiragini 1629 yilda yaratgan. Unda bug’ oqimining kinetik energiyasi uyg’otgan impuls

Kurakli g’ildirakni aylantirishga sarflangan. Suv bug’ining kinetik energiyasini mexanik energiyaga aylantirish mumkinligini Shved muxandisi G.de -Laval 1888 yil birinchi bug’ turbinasini isbotladi. Shunday qilib, bug’ turbinasi yaratilgandan so’ng, uni takomillashtirish tadqiqotlari rivoj topdi. Natijada bir, ikki, uch va ko’p bosqichli bug’ turbinalari yaratildi.

II. Bug’ turbinaning ishlash prinsipi.

Bug’ turbinasi qismlari quyidagi vazifani bajaradi. Val aylanib elektr generatori chulg’amlarini harakatlantiradi va natijada elektr energiya ishlab chiqaradi. Kuraklar keladigan bug’ning yo’lni to’sib valni harakatga keltiradi. Ishchi disk-valga mahkamlangan bo’lib kuraklar va valni bog’lab turadi. Soplo bug’ generatoridan keladigan bug’ni tezligini oshirib kuraklarga yuboradi. Turbina tanasi bug’ turbinasidagi bug’ni tashkariga chiqib ketishi va tashqi muhitdan saqlaydi. Ish bajarib bo’lgan bug’ chiqish quvuri orqali chiqib ketadi.

Bug’ning potensial energiyasini turbina valini aylanishlaridan iborat mexanik energiyasiga aylantirishning bir nechta usullar yordamida amalga oshirish mumkin. Bug’ni potensial energiyasini oqimning kinetik energiyasiga o’tkazish turiga qarab turbinalar aktiv, reaktiv va umumlashtirilgan (aktiv – reaktiv) turlarga bo’linadi.

1 - rasmda sxematik ravishda bir pog’onali aktiv turbinaning qirqimi ko’rsatilgan. Bu turdagi turbinada bug’ning kengayishi, yani uning potensial energiyasini kinetik energiyaga aylanishi qo’zg’almas soplo 4 larda , bug’ning kinetik energiyasini valning mexanik energiyasiga aylanishi esa ishchi kurak 3 larda amalga oshiriladi.

Bug’ turbinasining asosiy elementlari: soplo (4), val (1) da joylashgan disk (2) va ishchi kuraklari(3), chiqaruvchi quvurdan (6) tashkil topgan. Bunda val 1 va unda o’rnatilgan disk 2, turbinani asosiy qismi bo’lib, turbina rotori deb nomlanadi. Rotor turbina korpusi (5) da joylashadi. Val uchlari esa tayanch podshipniklarda joylashadi.

a) b)



1 – rasm. Bug' turbinalarining prinsipial sxemalari:
a) bir pog'onali aktiv turbinaning sxemasi;
b) kichik quvvatli reaktiv turbinaning sxemasi.

1 – rasmdagi (b) bug' turbina boshqa usulda ishlaydi. Halqali toza bug' kamerasi 10 dan bug' turbina kuraklariga uzatiladi. Turbina korpusni qo'zg'olmas qismida 4 va barabanni qo'zg'aluvchan qismiga 7 (rotorda) mahkamlangan yo'naltiruvchi va ishchi kuraklar bug' uzatuvchi kanallarni hosil qiladi. Kamera 10 dan bug' kuraklararo kanallardan oqib o'tib, bug' chiqarish quvuri 1 dan chiqadi va kondensatorga uzatiladi. Kamera 10 dan chiqish quvurigacha harakatlangan bug' asta-sekin kengayadi. Toza bug' kamera 10 dan chiqib, korpus 4 ga mahkamlangan birinchi qatorning yunaltiruvchi kuraklar 5 ni kanallariga o'tadi. Birinchi qatorning yunaltiruvchi kurak 5 kanallaridan chiqqan bug'ni, aylanadigan barabanga mahkamlangan aylanuvchi kurakchalarning birinchi qatorni kanallariga uzatadi.

III. Ish bo’yicha hisobot

Hisobot quyidagilardan iborat bo’lishi kerak:

1. Ishning qisqacha tavsifi.

2. Qurilmaning prinsipial sxemasi.

3. Bug’ turbinaning prinsipial sxemasini chizish.

IV. Nazorat savollari

1. Bug’ turbinasi deb nimaga aytiladi?

2. Bug’ turbinansining vazifasi nimadan iborat?

3. Bug’ turbinalar qanday turlarga bo’linadi?

4. Qanday turbinalarga aktiv turbina deyiladi?

5. Qanday turbinalarga reaktiv turbina deyiladi?

6. Qaysi qismga turbina rotori deb aytiladi?

7. Turbina soplosining vazifasi nimada?

8. Turbina kuraklari necha turga bo’linadi?

9. Bug’ turbinalar qaysi energetik qurilmaning asosiy jihozisanaladi?

10. Turbina valiga qaysi turbina elementlari o’rnatiladi?

ILOVALAR

Ilova 1

IES da bug' turbinani joylashishi



Ilova 2

AES da turbinani joylashishi



Ilova 3

Ko'p tsilindrli turbina K-300-23,5 (quvvati 300 MVt; bug'ni kirish bosimi 23,5 MPa)

Ilova 4



T-250/300-240 turbinani tuzilishi (quvvati 250/300; bug'ni kirish bosimi - 240 atm(kg/sm^2)).

Ilova 5

Talimarjon IES va Muborak IEM lardagi bug' turbinalarning asosiy ko'rsatkichlari (Q'zbekiston, Qashqadaryo viloyati):

Talimarjon issiqlik elektr stansiyasi (kondensatsion elektr stansiyasi) ning issiqklik sxemasi



Talimarjon issiqlik elektr stansiya unitary korxonasi – o’rnatilgan quvvati 800 MVt li kondensatsiyali issiqlik elektrostansiya bo’lib, O’zbekiston Respublikasining janubiy – Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarini elektr energiyasi bilan ta’minlashga mo’ljallangan.

Asosiy va zahira yoqilg’I – Sho’rtan gaz konidan chiqayotgan tabiiy gaz.

Talimarjon issiqlik elektr stansiyasining bug’ turbinali blogida bitta kondensatsion turdagi besh silindrli K-800-240-5 ЛМЗ rusumli turbina o'rnatilgan.

Turbina generatori TZV - 800 - 2EUZ rusumli hisoblanadi, rotorning aylanish soni n = 3000 ayl / min.ga teng va suvli sovutish tizimiga ega.

Turbina 8 ta rostlanmaydigan bug 'olinmasiga (otbor) ega. Ulardan blok sxemasida kondensat va ta'minot suvini regenerativ qizdirish uchun va blokni o'z ehtiyojini qondirish maqsadlarida foydalaniladi.

Turbinaning regeneratsiyalash qurilmasi ikkita aralash va uchta yuzali, bir yo'lli past bosimli qizdirgichlar guruhi tarkibiga kiradi.

Turbinaning asosiy texnik ko'rsatkichlari:

1. Nominal quvvati - 800000 kVt;
2. Harakatlar soni - 3000 ayl / min;
3. Bug 'sarfi (maksimal) - 2650 t / soat;
4. Avtomatik saqlash klapani oldida bug’ bosimi - 240 kg / sm^2 ;
5. Oraliq qizdirgich uchun bug 'sarfi - 2180 t / soat;
6. Oraliq qizdirgichga yuborilgan bug 'bosimi - 38,5 kg / sm^2 ;
7. Oraliq qizdirgichdan keyin bug 'harorati - 540˚C;
8. Kondensatordagi hisobiy bosim - 0,035 kg / sm^2;

Muborak issiqlik elektr markazining issiqlik sxemasi



Turbina asosan qozondan ishlab chiqarilgan bug'ni mexanik energiyaga aylantirib, o'zgaruvchan tokli TVF – 63 – 2 generatorini to'g'ridan to'g'ri aylantirish uchun mo'ljallangan.

Turbinaning texnik harakteristikalari quyidagicha:

- Markasi R-50-130/13 Qarshi bosimli, bir silindrli
  16 bosim bosqichli, 1 dona taqsimlash bosqichi.
- Nominal quvvati 50 MVt maksimal.
- Maksimal quvvati 60 MVt
- Rotorning aylanish chastotasi 3000 ayl/min
- Bug'ning kirishdagi bosimi 130 kgk/sm^2
- Bug'ning chiqishdagi bosimi 7-21 kgk/sm^2)
- Bug'ning kirishdagi harorati 555 ^{0}C
- Bug'ning chiqishdagi harorati 280 - 300 ^{0}C
- Tarmoqda doimiy ishlash uchun chastota chegaralari 49,5 Gts gacha.

Turbinaga kirgan 555 ^{0}C, 130 kgk/sm^2 bosimli bug' rostlash klapanlaridan o'tib, bug' taqsimlash soplolaridan boshlab 16 ta pog'ona orqali o'tadi va rotorni harakatga keltiradi. Uzluksiz beriladigan bug'ning sarfini ko'paytirish hisobga yuklama oshiriladi va shu tarzqa ish jarayoni davom etadi.

Turbina 5 yilda bir marotaba kapital ta'mirlanadi va har yili bir marta joriy ta'mirlanadi.

2 – TAJRIBA ISHI

« Ichki yonuv dvigateli (IYoD) nazariy siklini tavsifi, siklning termik FIKi»

Ishdan maqsad: Tajriba ishidan maqsad IYoD qurilmasining konstruktiv tuzilishini chuqur o'rganib chiqish va IYoD ning ish prinsipini, hamda eskizini chizishini o'rganish.

Tayanch iboralar: issiqlik, issiqlik mashinasi, IYoD,

Kerakli jihozlar: IYoD ni konstruktiv tuzilishini o'rganish uchun qurilma chizmasi, ishlash prinsipini o'rganish uchun taqdimot shaklida videoroliklar.

Taqdimotning bir necha slaydlari ilovada keltirilgan.

Tajriba ishini bajarish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish kerak:

1. S.M. Qodirov «Ichki yonuv dvigatellari». Toshkent. O'qituvchi. 1979 y.
2. Тошбоев Н.Т. «Иссиқлик юритгичлари» фанидан маърузалар туплами. 2000.

Ishning davomiyligi – 2 soat.

I.Umumiy ma'lumotlar

Ish yoqilg'isi maxsus qurilma ichida yonadigan va yonish jarayonida ajralib chiqqan issiqlik miqdorining ma'lum qismini mexanik energiyaga aylantirib bera oladigan issiqlik mashinasiga ichki yonuv dvigateli (IYoD) deyiladi.

Avtomobil uchun ichki yonuv dvigatellarining yaratilishi IX - asrning 60-yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda Lenuar (1860 y) Frantsiyada, N. Otto va E Lengen (1867 y) Germaniyada tadqiqotlar olib borgan. N. Ottoning to'rt taktli dvigateli (1867 y) Bo de Rosha tomonidan (1862 y) taklif etilgan sxema bo'yicha yasaladi. IX-asrda neftni qayta ishlashdan olinadigan benzin, kerosinlarni elektr uchquni yordamida yoqilishi ichki yonuv dvigatellarning keng tarqalishiga sabab bo'ladi.

Ichki yonuv dvigatellarida (IYoD) asosan ishchi jism bo'lib, gaz aralashmalari xizmat qiladi va u tsilindr ichida yonadi. Olingan issiqlik miqdori tsilindrda, gazlar kengayish hisobidan, porshenni harakatga keltiradi.

Ichki yonuv dvigatellari issiqlik enegretikasida bug' dvigateliga nisbatan afzalligi quyidagilardan iborat:

a)ko'p yordamchi uskunalari bo'lgan bug' qozoni va kondensat qurilmasining yo'qligi,

b)qurilmaning tez ishga tushirilishi, tayyorlov vaqtining yo'qligi,

v)qurilmaning kichik o'lchlamliligi va yengilligi.

Ichki yonuv dvigatellarning asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat:

a)yuqori sifatli gaz va suyuq yoqilg'iga talabchanligi,

b)qattiq yoqilg'ini ishlatib bo'lmasligi,

v)bir qurilmada 50÷100 ming kVt quvvatdan yuqori quvvat oladigan qurilmalar yaratib bo'lmasligi.

Bu kamchiliklar zamonaviy yuqori quvvatli issiqlik elektr stantsiyalarida bu turdagi qurilmalarning qo'llashga imkon bermaydi. Shuning uchun issiqlik elektrostantsiyalarda faqat bug' turbina qurilmalari qo'llaniladi.

Ichki yonuv dvigatellarni quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha klassifikatsiyalash mumkin:

1.Aralashma hosil qilish usuliga qarab:

a) tashqi aralashmali dvigatellar. Bunda yoqilg'i havo bilan tsilindrdan tashqarida aralashadi va tsilindrga tayyor yonuvchi aralashma kelib tushadi;

b) ichki aralashmali dvigatellar. Bunda yoqilg'i va havo tsilindrga alohida uzatiladi va yonuvchi ishchi modda tsilindr ichida hosil qilinadi.

2.Ishchi aralashmani yondirish usuliga qarab:

a)uchqunli yondirish dvigatellari;

b)siqish orqali yondiruvchi dvigatellar;

Uchqunli yondirish usuli bilan karbyuratorli va gaz dvigatellari ishlaydi.

3.Ishlatiladigan yoqilg'i turiga qarab:

a)engil suyuq yoqilg'ida ishlovchi dvigatellar (benzinda).

b)og'ir suyuq yoqilg'ida ishlovchi dvigatellar (dizel yoqilg'isi).

v)gaz yoqilg'isida ishlovchi dvigatellar.

4.Tsilindrni zaryadlash usuliga qarab:

a)to'rt (4) taktli dvigatellar;

b)ikki (2) taktli dvigatellar.

5.Tsiklni amalga oshirish usuliga qarab;

a)izoxorik tsikl bo'yicha ishlovchi dvigatellar.

b)aralash tsikl bo'yicha ishlovchi dvigatellar.

6.Dvigatel porshenining o'rtacha tezligi bo'yicha:

a)sekin yuruvchi dvigatellar.

b)tez yuruvchi dvigatellar.

7.Tsilindrning konstruktiv joylashishiga qarab:

a)qatorli dvigatellar.

b)vertikal dvigatellar.

v)gorizontal dvigatellar.

g)V shaklida.

d) W shaklida.

e) N shaklida.

j) X shaklida.

z) P shaklida.

Ichki yonuv dvigatellarning kichik o'lchamli va yengilligi sanoatning turli sohalarida qo'llanishga olib keladi.

Ichki yonuv dvigatellari yoqilg'i turiga qarab gaz yoqilg'isida (gaz dvigateli), suyuqlik yoqilg'ida (benzin, solyar moyi, kerosin, ligroin va x.k.), binar (suyuq va gaz) yoqilg'ida ishlaydigan dvigatellarga bo'linadi. Ish tsikliga qarab ikki va to'rt taktli; yoqilg'i kamerasiga kiritilishiga qarab bosimli va bosimsiz; ish aralashmasining tayyorlanishiga ko'ra ish jismi tashqarida va ichkarida tayyorlanadigan dvigatellarga bo'linadi. Ish aralashmasi o't oldirish usuliga qarab ichki va tashqi manbadan (elektr uchkuni, o'z-o'zidan yonish) va tsilindrda siqilgan havoning qizishi (dizel dvigateli) hisobiga o't oldiriladigan dvigatellar mavjud.

II. Ichki yonuv dvigatelning ishlash prinsipi.

Ishlash prinsipi **to'rt** taktli dvigatelda quyidagicha: ichki yonuv dvigatellari tsilindrning ichida porshen ilgarilanma qaytma harakatda bo'ladi. Bunda dvigatel tsilindrda ketma-ket ish jarayoni amalga oshiriladi.

Porshenli ichki yonuv dvigatel (1 – rasm.) ning asosini tsilindr 4 va unga kiritilgan porshen 5 tashkil qiladi. Porshen krivoship-shatunli mexanizm orqali tirsak valiga 9 yonish mahsuli gazlar vujudga keltirilgan bosim kuchini uzatadi. Tsilindrlar blogini ostki qismiga tirsak vali, ustki qismiga kiritish klapani 2 va chiqarish 6 klapanlari joylashtirilgan tsilindr kallagi o'rnatiladi. Tsilindrlar blogi kallagiga karbyuratorli dvigatellarda svecha 3, dizel dvigatellarda esa forsunkalar o'rnatiladi. Porshen tsilindrda ilgarilanma qaytma harakat qiladi.

Porshen valga 9 krivoship 8 va shatun 7 orqali biriktirilgan bo'ladi. Shuning uchun val aylanganda porshen ham harakat qiladi. Kiritish quvurii orqali keladigan yoqilg'i kiritish klapani 2 orqali tsilindr 4 ga kiritiladi. Tsilindrga kirgan yoqilg'i o't oldirish svechasi 3 orqali yondirilib tutun gazi hosil bo'ladi. Tutun gazi hajmi kengayib porshenni pastga itaradi va uning natijasida val harakatlanadi.

Valni aylanishida porshen yana yuqoriga ko'tarilib chiqarish klapani orqali tutun gazi chiqarib yuboriladi. Shu tarzda ichki yonuv dvigateli ishlaydi.

Karterda 1 yog bo'lib u ichki yonuv dvigatelining porshen 5, shatun 7, krivoship 8, vallarni yog'lab turadi.

Uzluksiz ish rejimini ta'minlash uchun har bir tsiklda tsilindrni siqish, yondirish, kengaytirish va ishlatilgan zaryadni chiqarib yuborish kerak. Porshenni bir tomonga harakatlanishi ish jarayonning bir qismi bo'lib, takt deb ataladi.

1-takt. Zaryad (yoqilg'i) porshenning yuqori tinch nuqtada quyi tinch nuqtaga harakatlanishida so'rish klapanida dvigatel tsilindriga toza havo so'riladi. Bunda chiqarish klapani yopiq bo'ladi. Tsilindr ichidagi bosim so'rishda filtrdagi quvurlarda so'rish klapandagi gidravlik yo'qotishlar hisobiga atmosfera bosimdan p_0 kam bo'ladi. So'rish oxirida tsilindrdagi bosim $0{,}85 \div 0{,}95\ p_0$ bo'ladi, ya'ni 5÷15% bosim yo'qoladi.

Tsilindrlarning turiga va konstruksiyasiga qarab klapanlarning ochilishi va yopilishi burchaklari alohida tanlanadi. Chunki klapanlarning ochishi tsilindr havo ta‘minotiga ta‘sir qiladi.

2—takt. Siqish klapani yopilgandan so’ng porshen teskari harakati natijasida zaryadning siqilishi boshlanadi. Tsilindrda bosim ortib *30÷60 bar,* harorati *890 ÷1100 K* gacha yetadi.

Siqilgan havoning bunday yuqori bo’lishi purkalgan yoqilg’ining unga aralashib yonishiga olib keladi.

3 – takt. Yonish va kengayish jarayoni porshenning yuqori tinch nuqtadan quyi tinch nuqtaga harakatlanayotganda amalga oshadi. Siqilish oxirida yonish kamerasida yoqilg’i purkalanadi. Aralashma issiq havo ta‘sirida qiziydi va alangalanadi.



2 – rasm. To’rt taktli dizelni ishlatish sxemasi.
yu.t.n-yuqori tinch nuqtasi; q.t.n. –qo’yi tinch nuqtasi

Tsilindrda gazlarning harorati *1750 ÷ 2500 K* gacha ko’tariladi. Bosim, dvigatel turiga qarab *50÷120 bar* bo’lishi mumkin. Bosim oshishi natijasida porshen teskari tomonga harakatlanadi, ya‘ni issiqlik energiyasining bir qismi

mexanik energiyaga aylanadi. Kengayishi oxirida bosim *3÷6 bar* gazlar harorati *850 ÷1300 K* gacha pasayadi.

4-takt. Chiqarish. Porshenning quyi tinch nuqtadan yuqori tinch nuqtaga harakatda amalga oshadi. Kengayish jarayonining oxirida chiqarish klapani ochiladi.

Dvigatel aylanishlar soniga qarab gazlar bosimi *1,05÷ 1,15 bar,* harorati esa *600÷750 K* gacha tushadi.

4-takt davomida chiqarish klapani ochiq turadi va gazlar porshen orqali tashqariga chiqarib yuboriladi.

4-takt tugagach yana so'rish takti boshlanadi, ya'ni tsikl qaytariladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan dvigatellar oddiy harakatlanuvchan dvigatellar hisoblanadi. Bunda ishchi jarayon dvigatelni porshen ustidagi bo'shlig'ida amalga oshiriladi.

Porshenni ikki tomonlama bo'shliqlarida ishchi jarayonlar o'tadigan dvigatellarga, ikki tomonlama harakatli dvigatellar deyiladi (2 – rasm). Ilgari ikki tomonlama harakatli dvigatellar ikki va to'rt taktli bo'lib chiqarilardi, oxirgi yillarda esa, ular faqat ikki taktli bo'lib chiqariladi.

Ikki tomonlama harakatli dvigatellarda ishchi tsilindr 3 ikki tomondan qopqoqli bo'ladi va porshen ostidagi bo'shliq, porshen ustidagi bo'shlqqa o'xshab ishchi hisoblanadi. Yoqilg'i forsunka 2 orqali purkab beriladi. Bu turdagi dvigatellarda porshen 4, kreytskopf 8 orqali shatun 9 bilan birlashtirilgan shtok 7ga qattiq mahkamlangan bo'ladi. Stokni pastki qismiga o'tadigan joyini germetik bo'lishini ta'minlash uchun diafragma5 ga o'rnatilgan salnik 6 mavjuddir. Ishlatilgan gazlar chiqaruvchi quvuri 1 dan chiqariladi.

Yuqori bo'shliqdagi porshenni q.t.n dan yu.t.n. gacha harakatlanganda tsilindrdan chiqarish va tsilindrni to'ldirish va so'ngra siqilish, pastki qismida esa shu vaqtni o'zida – yonish va kengayish, oxirida – chiqarish va tsilindrni gaz (havo) oqimi bilan tozalash jarayonlari amalga oshiriladi.



2 - rasm. Porshenli ikki tomonlama harakatli IYoD ning sxemasi.

Porshen harakati yu.t.n. dan q.t.n ga qarab bo'lsa, yuqori bo'shliqda gazlarni yonish va kengayish va so'ngra chiqarish va tsilindrni gaz (havo) oqimi bilan tozalash, pastki bo'shlig'ida esa tsilindrni gaz (havo) oqimi bilan tozalanishi yakunlanadi va tsilindr toza havo bilan to'ldirish, va siqilish jarayonlari amalga oshiriladi.

III. Ichki yonuv dvigatelining FIK ni aniqlash.

Termodinamik tsiklda issiqlikni mexanik energiyaga aylanishining mukammal lik darajasini termik foydali ish koeffitsiyenti η_t yordamida baholash mumkin.

Termik FIK deb, qaytariluvchan to'g'ri tsiklda bajarilgan ishning, ishchi jismga tashqi manbadan uzatilgan issiqlik miqdorga bo'lgan nisbatga aytiladi.

Umumiy holda

$$\eta_t = A_t/Q_1 = (Q_1 - Q_2)/ Q_1$$

bunda A_t – ishga aylangan issiqlik;

Q_1 – ishchi jismga uzatilgan issiqlik;

Q_2 – ishchi jismdan uzatilgan issiqlik.

Qanchalik η_t ni qiymati katta bo'lsa, shunchalik tsikl va issiqlik mashina mukammal bo'ladi.

Termodinamik tsikllarni solishtirish maqsadda, namunaviy tsikl sifatida, Karno tsiklning FIK ishlatiladi, uning ifodasi quyidagicha

$$\eta_t = (T_1 - T_2)/ T_1$$

bunda T_1 - qizdirgichning absolyut harorati;

T_2 – sovutkichning absolyut harorati.

Ifodani tahlilidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1) T_1 va T_2 lar orasida farqi qanchalik katta bo'lsa, shunchalik tsiklni FIK yuqori bo'ladi;

2)FIKning qiymati 100% ga teng bo'lmaydi, chunki T_2 ning eng past harorati atrof-muhit haroratiga teng bo'lishi mumkin.

IV. Ish bo'yicha hisobot

Hisobot quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1. Ishning qisqacha tavsifi.
2. Qurilmaning prinsipial sxemasi.
3. Ichki yonuv dvigatelning prinsipial sxemasini chizish.

V. Nazorat savollari

1. Ichki yonuv dvigatel deb nimaga aytiladi?

2. Ichki yonuv dvigatelning vazifasi nimada?

3. Ichki yonuv dvigatellar qanday turlarga bo'linadi?

4. Ichki yonuv dvigatellar qaysi yoqilg'ida ishlaydi?

5. Porshenli ichki yonuv dvigatel qaysi asosiy elementlardan iborat ?

6. Qaysi sohalarda IYoD lar ishlatiladi?

7. Dvigatel takti deb nimaga aytiladi?

8.To'rt taktli IYoD larda qaysi termodinamik tsikllar amalga oshiriladi?

9. Bug' turbinalari qaysi energetik qurilmaning asosiy jihozi?

10. Turbina valiga turbinaning qaysi elementlari o'rnatiladi?

ILOVALAR

Ilova 1

To’rt taktli IYoD

Ilova 2



To’rt taktli IYoD larni ishlash prinsipi

Ilova 3

Ikki taktli IYoD

Ilova 4



Ikki taktli IYoD ni tuzilishi

Ilova 5

To’rttaktli ichki yonuv dvigatelni moylash cxemasi

3 – TAJRIBA ISHI

“Parrakli nasoslar va ularni ishlash prinsipi”

Ishdan maqsad: Parrakli nasoslarning tuzilishi, ishlash tarkibi, va qo‘llanilish sohasi bilan tanishish. Parrakli nasoslarning asosiy ko’rsatkichlarni o’rganish.

Tayanch iboralar: parrakli nasoslar, markazdan qochma nasos, o’qli nasos, ishchi g’ildirak, parraklar, so’rish va bosimli quvurlar.

Kerakli jihozlar: Parrakli nasoslarning tuzilishini o’rganish uchun qurilma chizmasi, ish prinsipini o’rganish uchun taqdimot shaklida videoroliklar.

Taqdimotning bir necha slaydlari ilovada keltirilgan.

Tajriba ishini bajarish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish kerak:

1.Мухиддинов Д.Н., Матжанов Э.К. Иссиқлик электр станцияларнинг турбинали қурилмалари. Укув кулланма – Тошкент, Шарқ нашриёти, 2007.

2.Тошбоев Н.Т. «Иссиқлик юритгичлари» фанидан маърузалар туплами. 2000.

Ishning davomiyligi – 2 soat.

I.Umumiy ma‘lumotlar

Hozirgi vaqtda nasos texnikasida asosan qo’llaniladigan nasos jihozlari: dinamik va hajmiy nasoslar. Dinamik nasoslar tarkibiga parrakli, oqimli va taranlilar kiradi. Bulardan eng ko’p uchraydigan nasoslar – parrakli nasoslar. Bunga sabab, ular elektr yuritgichlar bilan qulay moslanishi, katta miqdorda uzatilishli, ixchamliligi, FIK yuqori, katta bosimlarni hosil qilish imkoniyatlarning mavjudligi.

Parrakli nasoslar - past, o’rta va yuqori bosimli markazdan qochma, o’qli va uyurmali turlarga bo’linadi.

Parrakli nasoslar - bosim bilan haydash mashinalarning eng ko'p tarqalgan turlaridan biri bo'lib, asosan suyuqliklarni, ba'zi hollarda gaz holatdagi moddalarni uzatishga mo'ljallangan mashinalar. Nasoslar markazdan qochma, o'qli, porshenli, membranali va boshqa turlarga bo'linadi. Suyuqlikni uzatuvchi nasoslar – suyuqlikni so'rish balandligi, ularning xarakteristikalari bo'yicha bir biridan farqlanadi.

Markazdan qochma va o'qli nasoslarni konstruktiv farqi: ishchi g'ildirakga o'rnatiladigan parraklarni joylashishida. Markazdan qochma nasoslarda parraklar radial bo'lib mahkamlanadi, o'qli nasoslarda esa val o'qiga nisbatan burchak ostida o'rnatiladi.



1 – rasm. Nasoslarning tasnifi.

Shu hisobidan markazdan qochma nasoslarda g'ldirak markaziga uzatiladigan suyuqlik markazdan kamera chetiga qarab aylantiriladi va varkazdan

qochma inertsion kuchlar orqali bosimli quvurga chiqariladi. O'qli nasoslarda uzatiladigan suyuqlik val o'qi bo'yicha, "oralib", bosimli quvurga haydaladi.

Markazdan qochma nasosning asosiy elementlari: ishchi g'ildirak, g'ildiraklar joylashtirladigan val, salniklar, podshipniklar, birlashtiruvchi mufta, tortuvchi va haydovchi quvurlar yunaltiruvchi apparatlar.



2 – rasm. Parrakli (markazdan qochma) nasos.

Ishchi g'ildirak (3-rasm) ga suyuqlik bir va ikki tomonlama uzatilishi mumkin. Ular chuyan, uglerodli va legirlangan po'lat, rangli metal va keramik materiallardan tayyorlanadi. U yoki bu materialni tanlash nasosning ish sharoiti, o'lchamlari, aylanish chastotasi va so'riladigan suyuqlik turlariga bog'liq bo'ladi. Kichik nasoslarning g'ildiraklari toza, zanglashga keltirmaydigan muhitni haydash uchun mo'ljalangan bo'lib, kul rangli chuyandan tayyorlanadi.

Yuqori bosimli qozonlarni suv bilan ta'minlovchi, markazdan qochma nasoslarning o'lchamlari va aylanish chastotasi yuqori bo'ladi. Ular uzatadigan suv yuqori haroratli bo'lgani uchun, bu nasoslar xrom va nikel bilan legirlangan po'lat va ruxdan tozalangan bronzalardan tayyorlanadi. Quyma ishchi g'ildiraklarning yuzalarida, ichki yuqolishlarni kamaytirishi maqsadida, ichki yuzalardagi g'adir-budurliklar kam bo'lishi shart. Nasosning vali, asosiy va muhim qism hisoblanadi:

aylanish chastotasi katta miqdorli bo’lganda, valga nisbatan ko’ndalan kuchlarning ta’siri ham ancha oshadi.



3 – rasm. Ishchi g’ildirak turlari

Markazdan qochma nasos konstruktsiyalarida “egiluvchan” vallar ham qo’llaniladi. Val va unga joylashtrilgan detallar, birgalikda, nasos rotori deyiladi. Val ishlab chiqarishda uglerodli konstruktsion va maxsus legirlangan po’latlardan foydalaniladi. Nasosni moylashda suyuq moylar ishlatiladi. Markazdan qochma nasos valini yuritkich vali bilan tutashtirish uchun tutashtiruvchi mufta qo’llaniladi.

II. Parrakli (markazdan qochma va o’qli) nasoslarning ishlash prinsipi.

Markazdan qochma nasosda uzatilgan suyuqlik markazdan qochma kuch ta’sirida, aylanadigan g’ildirak markazidan chetga surilib, spiralli kameraga uzatiladi, bu yerdan esa quvurga haydab chiqariladi, 4 - rasm.



4 - rasm. Markazdan qochma nasosni ishlash prinsipi.

O’qli mashina (nasos) da energiya mashina validan oqimga vtulkaga maxkamlangan konsol, parrakli ishchi g’ildirak yordamida uzatiladi. Mashinaning g’ildiragi o’q bo’yicha yunalishini saqlaydi, parraklari esa aylanish tekisligiga nisbatan burchak ostida joylashganligi uchun, g’ildirak suyuqlik (gaz)ni o’ziga tortib, biroz aylantirib g’ildirak o’qi bo’yicha yunaltiriladi (5- rasm).



5 – rasm. O’qli nasos. 1-so’rish quvuri; 2,3 – parraklar; 4 – haydash quvuri; 5 – nasos vali; 6-vtulka

Mashina oqim qismdagi ishqalanish va uyurmalar hosil bo'lishi, zichsizliklardan oqimning bir qismini oqib ketishi, podshipnik va salniklarda mexanik ishqalanish, shuningdek disklarni suyuqlik gaz(ga) ishqalanishi natijasida o'qli mashinalarda energiya yo'qotilishlari sodir bo'ladi.

IV. Parrakli nasolarning asosiy ko'rsatkichlari.

Nasos ishlarini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar: uzatilish (unumdorlik), bosim, so'rish balandligi (napor) va nasoslarga uzatilgan energiya miqdori. Bir vaqt birligida uzatilgan suyuqlik yoki gaz miqdoriga unumdorlik deb aytiladi. Hajmiy o'lchov birlikda o'lchangan unumdorlikka hajmiy – Q, massali o'lchov birliklarda o'lchangan unumdorlikka massali –M unumdorlik deyiladi.

Ularni birlashtiruvchi bog'liqlik quyidagicha :

$$M=\rho Q$$

bunda, ρ-muhit zichligi, kg/m^3

Nasos bosimini quyidagi ifoda orqali belgilash mumkin.

$$p = p_{ch} - p_k + \frac{c_{ch}^2 - c_k^2}{2}\rho + \rho g(z_{ch} - z_k)$$

bunda, p_{ch}, p_k- mashinadan chiqish va kirish bosimlari, Pa, ρ-ishchi muhit zichligi, kg/m^3; c_{ch}, c_k –ishchi muhitni nasosdan chiqish va kirish tezliklari, m/s; z_{ch}, z_k- nasosni chiqish va kirish kesimlari o'rtasidagi og'irlik markazlarining joylashish balandliklari.

So'rish balandlikining to'la qiymati:

$$H = \frac{p}{\rho g}$$

yoki

$$H = \frac{p_{ch} - p_k}{\rho g} + \frac{c_{ch}^2 - c_k^2}{2g} + (z_{ch} - z_k)$$

Nasosning quvvati nasos bajaradigan ishiga o'xshab, nasos *quvvati* va *foydali quvvatlariga* bo'linadi

$$N_f = \frac{\rho Q g H}{1000} = \frac{Qp}{1000} \;\; yoki \;\; N_f = \frac{ML_f}{1000}$$

Nasosning *foydali ish koeffisenti* - uzatilgan energiyani, samarali iste'mol qilinishini belgilovchi parametridir.

U quyidagicha ifodalanadi:

$$\eta = \frac{N_f}{N}$$

Nasosning foydali ish koeffitsenti nasos turiga, o'lchamlariga, konstruksiyasiga, so'riladigan suyuqlik turiga, nasosning ish rejimiga, tarmoqning xarakteristikasiga bog'liq bo'ladi.

Nasos va elektroyuritkichlardan iborat bo'lgan qurilmalarning energetik samaradorligi, qurilmaning foydali ish koeffitsienti bilan belgilanadi:

$$\eta_{qur} = \frac{N_f}{N_{el}}$$

bunda, N_{el} - elektroyuritkichning quvvati.

MKGSS tizimida foydali quvvat quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$N_f = \frac{\gamma Q H}{102}$$

V. Ish bo’yicha hisobot

Hisobot quyidagilardan iborat bo’lishi kerak:

1. Ishning qisqacha tavsifi.

2. Qurilmaning prinsipial sxemasi.

3. Markazdan qochma nasosning prinsipial sxemasini chizish.

VI. Nazorat savollari:

1. Nasos deb qaysi mashinaga aytiladi?

2. Qanday guruhlarga nasoslar bo’linadi?

3. Parrakli nasoslar nasoslarni qaysi guruhiga kiradi?

4. Markazdan qochma nasos qaysi qismlardan iborat?

5. Markazdan qochma va o’qli nasoslarni farqi nimada?

6.Iishchi g’ildirakning vazifasi nimada?.

7. Markazdan qochma nasoslar qayerlarda ishlatiladi?

8. O’qli nasoslar qayerlarda ishlatiladi?

4 – TAJRIBA ISHI.

“Markazdan qochma nasosni tajribada sinash”

Ishdan maqsad: Markazdan qochma nasosning tuzilishi, ishlash tarkibi, va qo‘llanilish sohasi bilan tanishish.

Markazdan qochma nasosning ish haraktkristikasini tajriba yo’li bilan ko‘rish.

Tayanch iboralar: parrakli nasoslar, markazdan qochma nasos, , ishchi g’ildirak, parraklar, so’rish va bosimli quvurlar, nasos xarakteristikasi.

Kerakli jihozlar: markazdan qochma nasosning tuzilishini o’rganish uchun qurilma chizmasi, ish prinsipini o’rganish tajriba stendi.

Tajriba ishini bajarish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish kerak:

1.Мухиддинов Д.Н., Матжанов Э.К. Иссиқлик электр станцияларнинг турбинали қурилмалари. Укув кулланма – Тошкент, Шарқ нашриёти, 2007.

2.Тошбоев Н.Т. «Иссиқлик юритгичлари» фанидан маърузалар туплами. 2000.

Ishning davomiyligi – 4 soat.

I.Umumiy ma‘lumotlar

Quydagi grafik shaklida ifodalangan bog’liqlarga markazdan qochma mashinalarning *xarakteristikalari* deyiladi:

$$H=f(Q);\ N=F(Q);\ \eta =.F(Q);\ H_{st}=\varphi(Q);\ \eta_{st}=\theta(Q);$$

Agar *n=const* (*n* - nasos valinlin aylani chastotasi, *ayl/daq*) bo’lsa, bunday xarakteristikalarga o’zgarmas aylanma chastotali xarakteristikalar, agar *n=var* bo’lsa, o’zgaruvchan aylanma chastotali xarakteristikalar deyiladi. Keltirilgan

bog'liqliklardan eng asosiysi $H = f(Q)$ (so'rish balandligi va unumdorlik orasidagi bog'liqlik) hisoblanadi.

II. Ishga tayyorgarlik:

Tajriba ishni boshlashdan oldin mazkur bayonini o'qib chiqing.

1. 1 - ,2 – jadvallarini tayyorlab, tegishli rasmlarni chizib qo'yish.

2.Nasosni tajribada sinash vaqtida har xil manometr ko'rsatkichi ($R_{man.}$) da Z_i, $h_{vak.}$, R ko'rsatkichlarini yozib olish.

3.Barcha kuzatishlarni jadvalga yozib olish.

III. Ish bajarish tarkibi.

1.Hamma kataliklarni o'lchash uchun o'lchov asboblarini tekshirish va ishga tayyorlash.

2.Tartibga soluvchi kranni asta – sekin ochib, qo'llay rejim o'rnatish, barcha o'lchov asboblarin ko'rsatkichlarini yozib, hisoblab, nasosni ish tavsifini chizish.

3.Hisobot tayyorlash (xulosa bilan).

Elektryuritkich ulanish sxemalari va barcha o'lchash asboblari va ularning ulash sxemalarning tajribaga tayyorgarligini tekshiring.

Bosimli bakdagi suv sathi uchburchakli oqava nav qirrasigacha to'ldirilgan bo'lsin. Nasosni ishga tushirishdan oldin bosimli quvurda rostlavchi jumrak yopiladi. Nasos ishga tushiriladi va $Q = 0$ uchburchakli oqava navdagi suyuqlik sathini o'lchash mashinasi yordamida o'lchab jadvalga yozib oling. Asta – sekin jumrakni ochib borib, bir xil oraliqda barcha o'lchov asboblar ko'rsatkichini yozib oling. Tajriba sharoitida rejimlar soni kamida 5– 6 ta bo'lishi shart. O'lchash natijalari 1 – jadvalga yozib olinadi.

1 – jadval.

№	N_{el}, kVt	R, dm	h_{vak}, sm	z_i, sm	Ilova
1	2	3	4	5	6



1 – rasm. Markazdan qochma nasosni tajribada sinashning stendning sxemasi.

IV. Tajriba natijalarini hisoblash va hisobot tayyorlash.

1. Tajriba natijalariga asoslanib quyidagi hisob – kitoblarni bajaring. Uchburchakli oqava navdagi suv sathlari Z_i va Z_0 dan Z bosimni toping.

$$z = z_i - z_0 \quad , (\text{sm})$$

bunda Z_i - bosimli bakdagi suv sathi, sm;

Z_0 - uchburchakli oqava nav qirrasigacha bo'lgan masofa, sm.

2. Topilgan Z bosim kattaligi orqali tariririovka grafigidan (2 – rasm), nasos unumdorligi topiladi.

3. Nasosning bosimi quyidagi ifodadan topiladi:

$$H = H_{vak} + H_{man} + \Delta h + (v^2_t - v^2_{ich.}/2g),$$

bunda H_{vak} - tortish quvurdagi vakuummetrik bosimi :

$$H_{vak} = (h_{vak} \cdot \gamma_{sim.}) / \gamma \ ; \ sm$$

H_{man} – bosimli quvurdagi manometrik bosim:

$$H_{man} = (R_{man.}) / \gamma \ ; \ sm.$$

bunda : h_{vak} – vakuummetr ko'rsatkichi, mm.sim.ust.;

$\gamma_{sim.}$ = 13600 kg/sm^2 – simobning solishtirma og'irligi;

γ – suvning solishtirma og'irligi kg/sm^2;

v_b va v_h – bosimli va haydash quvurlardagi suyuqlik oqimi o'rtacha tezliklari, m/sek.



2 – rasm. Tarirovka grafigi.

4.Nasosning foydali quvvati quyidagi ifodadan topiladi:

$$N_f = \gamma \ QH \ /102, \ \ (kVt)$$

5. Nasosning sarflangan quvvati quyidagi ifodadan topiladi:

$$N = N_{el.yu.} / \eta_{el.yu}, \ (kVt)$$

bunda $N_{el.yu.} = N_{vat.} \alpha,$

$\eta_{el.yu}$ - elektr yuritkichning F.I.K.,

$N_{vat.}$ - vattmetr ko'rsatkichi;

α – koefitsiyent vattmetr orqali topiladi.

Hisoblash natijalri 2 – jadvalga yoziladi.

2 – jadval.

№	N, m	Z, sm	Q, m^3/chas	N_p, kVt	N_v, kVt	η, %
1	2	3	4	5	6	7

IV. Ish bo'yicha hisobot

Hisobot quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1. Ishning qisqacha tavsifi.

2. Qurilmaning prinsipial sxemasi.

3. *H=f(Q), η=f(Q), N =f(Q)* bog'lanishlar orqali nasosning ish tavsifi chiziladi.

Nazorat savollari:

1. Markazdan qochma nasosning tuzilishi qanday?

2. Boshqa nasoslardan farqi nimada?

3. Nasosning bosimi, suyuqlik sarfi, quvvati va F.I.K. qanday topiladi?

4. Nasosning ish tavsiflari qanday chiziladi?

5. Markazdan qochma nasos tajribada qanday sinaladi?

5 – TAJRIBA ISHI

« EHM dasturi yordamida shesternyali nasosni xarakteristikasini tuzish»

Ishdan maqsad: Shesternyali nasosning tuzilishi, ishlash tarkibi, va qo‘llanilish sohasi bilan tanishish. Shesternyali nasosning ish haraktkristikasini tajriba yo’li bilan ko‘rish

Tayanch iboralar: shesternya, shesternyali nasos, nasos tishchalari, hajmiy FIK, nasos xarakteristikasi.

Kerakli jihozlar: Shesternyali nasosning tuzilishini o’rganish uchun qurilma chizmasi, ish prinsipini o’rganish uchun taqdimot shaklida videoroliklar.

Taqdimotning bir necha slaydlari ilovada keltirilgan.

Tajriba ishini bajarish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish kerak:

3. Мухиддинов Д.Н., Матжанов Э.К. Иссиқлик электр станцияларнинг турбинали қурилмалари. Укув кулланма – Тошкент, Шарқ нашриёти, 2007.
4. Тошбоев Н.Т. «Иссиқлик юритгичлари» фанидан маърузалар туплами. 2000.

Ishning davomiyligi – 4 soat.

I.Umumiy ma‘lumotlar

Shesternyali nasoslar ham plunjerli nasoslar singari hajmiy nasoslar guruhiga kiradi. Bunday nasoslar ham ishlash jarayonida suyuqlikka R/ρq bosim ortirish yo’li bilan energiya beradi. Boshqa hajmiy nasoslar singari so‘rish jarayonida shesternyali nasoslar ishlagan vaqtida uning haydash qismida ish hajmi kamayadi, bosim esa oshadi. Natijada suyuqlik haydash quvuriga haydaladi.

Shesternyali nasoslar o‘zining tuzilishiga ko‘ra rotorli hajmiy nasoslar turiga kiradi, chunki ularning asosiy ish qismlari aylana bo‘ylab harakatlanadi.

